

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 10

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Фарманова Гулнара Комилевна
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА 9-18

Саидбобоева Гулзора Нематжоновна
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР
БОШИ) 19-26

Ахмедов Шахзод Фарход ўғли
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ 27-34

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR 35-39

Янгибоева Дилноза Ўктамовна
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ
ФАОЛИЯТИ 40-48

Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА
УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ 49-53

Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI 54-58

Ergasheva Bahridil G'olibjonovna
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIIY-MA'NAVIIY HAYOTGA TA'SIRIGA
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) 59-65

Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР 66-74

Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi
XORIJIIY INVESTITSIIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 75-80

Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ
ТАРИХИГА БИР НАЗАР 81-86

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Boltayev Nurali Shiramatovich
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH	116-121
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН	141-147
<i>То'хтайев Hakim Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI	173-178
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	179-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	187-193
<i>Umarova Xurshida Zikiryoixonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI	194-201
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN	202-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	218-224
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Qosimov Botirjon Ma'ruffjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР	247-253
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	323-328

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Xushmuradov Oman Namozovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi
Email: o.xushmuradov@gmail.com

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va ularning tahlili keltirilgan. Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun xalqaro amaliyotlar, me'yorlar va olimlar qarashlari o'rganilgan. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari, bank tizimi, barqarorlik, risklar, kredit portfeli, pul-kredit siyosati, bank nazorati, chora-tadbirlar.

Xushmuradov Oman Namozovich

Associate Professor of Karshi engineering economics institute,
candidate of economic sciences

PROSPECTS FOR ENSURING FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS

Absrtact: the article presents the financial stability of commercial banks, the main factors influencing the financial stability of commercial banks, indicators of the financial stability of the banking system of the Republic of Uzbekistan and their analysis. International experience, norms and views of scientists on ensuring the financial stability of banks have been studied. Conclusions and proposals for improving the financial stability of commercial banks are given.

Key words: financial stability, commercial banks, banking system, stability, risks, loan portfolio, monetary policy, banking supervision, measures.

Хушмурадов Оман Намозович

Доцент Каршинского инженерно-экономического института,
кандидат экономических наук

ПЕРСПЕКТИВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Аннотация: в статье приведены финансовая устойчивость коммерческих банков, основные факторы влияющие на финансовую устойчивость коммерческих банков, показатели финансовой устойчивости банковской системы Республики Узбекистан и их анализ. Изучены международный опыт, нормы и взгляды ученых по обеспечению финансовой устойчивости банков. Даны выводы и предложения по повышению финансовой устойчивости коммерческих банков.

Ключевые слова: финансовая стабильность, коммерческие банки, банковская система, устойчивость, риски, кредитный портфель, монетарная политика, банковский надзор, меры.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N15>

Kirish. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi ta'minlash muammosi har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanish bosqichidagi eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning dolzarbligi zamonaviy iqtisodiy sharoitda bank sektorining har qanday mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan bank muassasalari faoliyatini tahlil qilishning roli ortib bormoqda. Aksariyat banklar tahlil va risklarni boshqarish bo'limlarini tashkil qiladi, lekin banklar faoliyatini tahlil qilishning boshqa jihatlari esa tahlilchilar e'tiboridan chetda qolmoqda. Shuning uchun tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun kompleks yondashuv va o'ylangan taktika hamda moslashuvchan nazorat tizimi zarurdir.

Resurslarni boshqarish va loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy bozorlar va bank tizimi asosiy o'rin tutadigan zamonaviy dunyoda bank institutlarining barqarorligi va ishonchligini ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda ham tijorat banklari moliyaviy ahvolining beqarorligi va ularda investitsiyalarni kengaytirish kabi vaziyatlarning mavjudligi bu borada respublikamiz tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammolarini nazariy va amaliy jihatlarni tahlil qilishning dolzarbligini asoslaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Moliyaviy barqarorlik – banklar aktiv va passivlarning sifati hamda kredit siyosatining agressivligi bilan belgilanadi [2; B. 866.].

Tadqiqotchi T.N. Chudaykinaning fikricha bankning moliyaviy xavfsizligi iqtisodiy kategoriya hisoblanib, moliyaviy barqarorlik tushunchasini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Ya'ni, tijorat bankining moliyaviy barqarorligi uning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning muhim shartidir [8, b. 392].

Pokistonlik tadqiqotchilar Sarwar Bilal, Muhammad Noor va Azhar Usmanlar bank barqarorligiga moliyaviy vositachilik jarayonida tizimli va tizimsiz tavakkalchiliklarning yuzaga kelishi natijasida bank sektori duch kelgan notinchliklarga qaramay, bankning samarali va natijali faoliyat yuritayotgan holati tushuniladi, - deb ta'rif ta'rif berishadi [5, b. 9].


Chikago biznes maktabi professori Raghuram Rajan o'zining tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikning ahamiyati va bank faoliyati bilan bog'liq risklarga e'tibor qaratadi. Shuningdek, u pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqib, moliya tizimini mustahkamlash bo'yicha siyosiy va iqtisodiy yechimlarni taklif qildi [4, b. 102].

Moliyaviy barqarorlik - bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi [9].

Tadqiqotchilar J.Y. Isakov, Z.Dj.Adilova va B.A.Xonto'rayevlar fikricha, xalqaro bank amaliyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida tijorat banklari faoliyatidagi risklarning

kuchayib borishi kuzatilmoqdaki, buning natijasida bank risklarini baholash va boshqarish tizimlarining sifatini oshirish, ularga nisbatan belgilangan talablarni kuchaytirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Natijada, Markaziy banklar, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tijorat banklari faoliyatidagi risklarni baholash va boshqarish bo'yicha yangi yondashuvlar va metodikalarni ishlab chiqmoqdalar. Xususan, Bazel-II standartida kredit riski va operatsion riskni baholash bo'yicha bir qator yangi ishlanmalar o'z aksini topdi [1, b. 10].

Muhokama. 2022 yilda O'zbekiston Respublikasi banklaridagi jami kapital 83,4 trln. so'mni, regulyativ kapital monandligi koeffitsiyenti 17,8 foizni tashkil etib, o'tgan davrning mos davriga nisbatan 0,3 foizga oshgan.



1-rasm. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar.

Kredit tavakkalchiligi: eng muhim omillardan biri bo'lib, bank tomonidan olingan qarz mablag'larining qaytarilmasligi ehtimoli bilan bog'liq. Aktivlar sifatining yomonlashuvi, qarz oluvchilarning o'z majburiyatlarini bajarmasliklari va defoltlarning ko'payishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Likvidlik: likvidlikning yetarli emasligi bank uchun jiddiy xavfga aylanishi mumkin. Mavjud majburiyatlarni bajarish va depozitni yechib olish bo'yicha so'rovlarni qoplash uchun mablag'larning yetishmasligi moliyaviy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kapital: bankning kapital darajasi uning barqarorligining asosiy ko'rsatkichidir. Kapitalning yetarli emasligi bankning yo'qotishlarini to'lashiga to'sqinlik qiladi, bu esa bankrotlikka olib kelishi mumkin.

Risklarni boshqarish: kredit riski, operatsion risk va bozor riski kabi turli xil risklarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikning asosidir.

Tartibga solish va nazorat qilish: tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlarning harakatlari banklarning moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Regulyatorlar kapital, likvidlik va banklar rioya qilishlari kerak bo'lgan boshqa qoidalarni belgilaydilar.

Iqtisodiy muhit: inflyatsiya, foiz stavkalari, ishsizlik va boshqalar kabi makroiqtisodiy omillar banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etadi hamda kreditga bo'lgan talab va aktivlar sifatida namoyon bo'ladi.

Texnologik tahdidlar: bugungi bank muhitida kiberhujumlar va ma'lumotlarning buzilishi kabi texnologik tahdidlar. Bunda tegishli kiberxavfsizlik mavjud bo'lmasa, bank tizimi va mijozlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Geosiyosiy xavflar: geosiyosiy hodisalar va mojarolar moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiladi, ayniqsa bu jarayonlar bank faol bo'lgan mamlakatlar yoki mintaqalarga xosdir.

Innovatsiyalar va raqobat: moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va bozorga yangi ishtirokchilarning raqobati ham banklar uchun qiyinchiliklar va moslashuv talablarini keltirib chiqarishi mumkin.

Natijalar. Rivojlanayotgan mamlakatlar bank amaliyotida ham tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash sohasida banklardagi risk-menejment tizimini rivojlantirish, banklarning kapitallashish darajasini oshirish va likvidligini ta'minlash, tijorat banklari va aktivlarining rentabellik darajalarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [6, b. 42].

2022 yilda O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tashqi va ichki xatarlarga nisbatan bardoshlilikini ko'rsatdi. Biz quyida respublikamiz bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlilini keltirdik.

1-jadval

2022 yilda bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (davr oxiriga) [7, b. 54].

mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Yanv.	Fev.	Mar.	Apr.	May	Iyun.	Iyul.	Avg.	Sen.	Okt.	Noya.	Dek.
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati	17,4	17,6	17,6	17,1	16,7	17,0	16,7	16,5	16,5	16,3	16,0	17,8
I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati	15,5	15,6	15,2	14,7	14,3	14,4	14,0	13,9	13,5	13,2	12,9	14,5
Zaxiralar chegirilgan holda muammoli kreditlar va	13,5	14,0	13,9	15,9	15,6	13,8	13,2	13,2	12,2	10,5	9,9	9,0

mikroqarzlarning regulyativ kapitalga nisbati												
I darajali asosiy kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati	15,5	15,5	15,1	14,7	14,3	14,4	13,9	13,8	13,4	13,2	12,9	14,4
I darajali kapitalning jami aktivlar summasiga nisbati	14,8	15,1	14,6	14,0	13,3	13,3	12,9	12,5	12,4	12,4	12,0	12,2
Muammoli kreditlarning jami kreditlar va mikroqarzlarga nisbati	5,3	5,2	4,9	5,2	5,2	4,8	4,8	4,8	4,6	4,2	4,0	3,5
Maxsus zaxiralarning muammoli kreditlar va mikroqarzlarga nisbati	43,6	39,5	37,3	32,6	34,6	36,3	39,2	40,2	41,9	46,3	46,9	46,6
Aktivlar rentabelligi	2,5	2,3	2,3	2,4	2,4	2,7	2,6	2,5	2,6	2,6	2,6	2,5
Kapital rentabelligi	12,8	11,3	10,6	11,5	11,4	13,1	12,5	12,5	12,9	13,2	13,0	13,3
Foizli marjaning yalpi daromadga nisbati	43,7	42,9	39,8	38,5	38,8	38,6	40,0	40,7	41,5	42,2	42,1	42,1
Foizsiz xarajatlarning yalpi daromadga nisbati	21,1	27,9	35,8	38,5	40,1	40,4	41,0	42,1	42,9	43,8	44,6	46,5
Likvid aktivlarning jami aktivlarga nisbati	16,9	17,1	16,2	19,0	19,8	21,6	23,2	23,5	22,3	22,0	22,3	21,5
Likvid aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati	44,3	44,9	42,4	46,4	46,0	50,4	52,9	51,5	47,9	48,6	47,7	47,3
Sof ochiq valyuta mavqeining jami regulyativ kapitalga nisbati	4,4	4,5	7,2	5,4	3,9	3,3	3,4	3,8	5,0	6,0	3,1	1,7

Tadqiqot natijalarimizga ko'ra, banklarda kapital monandiligi koeffitsiyenti Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan minimal talablarga nisbatan yuqori shakllangan bo'lib, banklarning iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash hamda potensial shoklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli darajada kapital bilan ta'minlanganini bildiradi. O'z navbatida, so'nggi yillarda bank tizimida kuzatilgan barqaror rentabellik darajasi shuningdek, Markaziy bank tomonidan kapital monandligiga qo'yiladigan talablarning sifat va miqdor jihatdan bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilishi tijorat banklari uchun kapital yetarliligi ko'rsatkichlarini bajarish imkonini bermoqda

Respublikamizda tijorat banklari moliyaviy barqarorligining kelgusidagi istiqbolini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- kreditorlar va omonatchilar huquqlarini mustahkamlab, omonotlarni sugurtalash tizimi tartibini yo'lga qo'yish;

- kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy huquqiy standartlarini xalqaro miqyosda tan olingan Bazeli qo'mitasining "Samarali bank nazoratining asosiy tamoyillari" hujjatida belgilangan standartlarga yaqinlashtirish;

- tijorat banklarining zamonaviy elektron texnologiyalardan kengroq foydalanishi uchun sharoitlar yaratish;

- valyutani tartibga solish va valyuta nazorati tizimini takomillashtirishni ta'minlash;

- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tijorat banklari faoliyatiga aralashuvlarni kamaytirish;

- bank sohasida tijorat faoliyati erkinligini cheklovchi xatti-harakatlarning oldini olish va raqobatni tartibga solish mexanizmlarini joriy etish.

2023 yilda jahonda moliyaviy barqarorlik xatarlari oshdi. AQSH va Yevropa moliyaviy tizimlarida yuzaga kelgan noaniqlik bir qator banklarning moliyaviy yo'qotishlarga uchrashiga olib keldi. Bu esa, moliyaviy bozorlarda tahlika uyg'onishiga va tebranuvchanlikning oshishiga, investorlarda xatarga moyillikning pasayishiga va natijada, ba'zi banklarning defoltga uchrashlariga sabab bo'ldi. 2022 yilda O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tashqi va ichki xatarlarga nisbatan bardoshlilikini ko'rsatdi. Xususan, bank tizimida kapital monandiligi koeffitsiyenti Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan minimal talablarga nisbatan yuqori shakllangan bo'lib, banklarning iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash hamda potensial shoklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli darajada kapital bilan ta'minlanganini ko'rsatdi [3, b. 2].

Xulosa. Dunyo miqyosida moliyaviy inqirozlar va beqaror iqtisodiy sharoitlarda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi iqtisodiyotning mutanosib va barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'ladi. Bu barqarorlikni ta'minlash ham moliyaviy institutlar, ham tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlar uchun ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarga kredit portfeli riski, likvidlikni boshqarish, kapital va tartibga solish kiradi. Ushbu omillarni faol boshqarish, shuningdek, moliyaviy va kiberxavfsizlik sohasidagi innovatsiyalar tijorat banklarining barqarorlik strategiyasida muhim o'rin tutadi.

Tizimdagi texnologik o'zgarishlar, raqobat va global integratsiya kabi zamonaviy muammolar ham tijorat banklari faoliyat sohalarida moslashish va innovatsiyalarni talab qiladi. Binobarin, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash istiqbollari nafaqat

dolzarb muammolarga javob berish, balki takomillashtirish va rivojlanishga doimiy intilishni ham nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash iqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlashning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Bu muammo banklar, tartibga soluvchilar va aktsiyadorlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini, shuningdek, tez o'zgaruvchan moliyaviy muhitga moslashishni talab qiladi. Moliyaviy barqarorlikka intilish zamonaviy bank tizimini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Isakov J. Y., Adilova Z.Dj., Xonto'rayev B.A. «BANK RISKLARI» / O'quv qo'llanma. - T.:«IQTISODIYOT», 2020y. - 272b.
2. Мурысёв, А. А. Проблемы обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков / А. А. Мурысёв. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 11 (115). — С. 864-867.
3. Moliyaviy barqarorlik sharhi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2023 yil. 111 b.
4. Rajan, Raghuram G. (2010). Fault Lines: How Hidden Fractures Still Threaten the World Economy, Princeton University Press, pp. 288, Rs. 499. ISBN: 978-81-7223-973-2.
5. Sarwar, Bilal & Muhammad, Noor & Azhar, Usman. (2020). Financial stability and competitiveness of commercial banks in Pakistan: An empirical analysis. 14.
6. Тогаев, С. (2022). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ЕГО ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(1), 40–45. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss1/a6
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistika byulleteni. –T.: 2022 yil. 135 b.
8. Чудайкина Т.Н. Финансовая безопасность как внутрипроизводственная функциональная составляющая экономической безопасности // Аллея науки. 2019. №2 (29). С. 391-394.
9. <https://cbu.uz/oz/financial-stability/about/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатиغا олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).